

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURUDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**FAYZIMURODOV JASUR BAXTIYOR O‘G‘LI**

**OQ JO‘XORINING O‘SISHI, RIVOJLANISHI, HOSILDORLIGIGA  
EKISH MUDDATLARI VA ME‘YORLARINING TA‘SIRI  
(Jizzax viloyatining kuchsiz sho‘rlangan tuproqlari misolida)**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on agricultural sciences**

**Fayzimurodov Jasur Baxtiyor o‘g‘li**

Оқ jo‘xorining o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligiga ekish muddatlari va me‘yorlarining ta‘siri (Jizzax viloyatining kuchsiz sho‘rlangan tuproqlari misolida)..... 3

**Файзимуродов Жасур Бахтиёр угли**

Влияние сроков и норм посева на рост, развитие и урожайность сорго (на примере слабозасоленных почв Джизакской области)..... 21

**Fayzimurodov Jasur Bakhtiyor ugli**

The influence of sowing dates and sowing rates on the growth, development, and yield of white sorghum (based on the example of slightly saline soils in the jizzakh region) ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 43

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURUDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**FAYZIMURODOV JASUR BAXTIYOR O‘G‘LI**

**OQ JO‘XORINING O‘SISHI, RIVOJLANISHI, HOSILDORLIGIGA  
EKISH MUDDATLARI VA ME‘YORLARINING TA‘SIRI  
(Jizzax viloyatining kuchsiz sho‘rlangan tuproqlari misolida)**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/Qx1405 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.samaguni.uz](http://www.samaguni.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Xalilov Nasriddin</b> qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Maxmatmurodov Alisher Ulmasovich</b> qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent <b>Nazarov Xudoyberdi Kuydimurodovich</b> qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent
<b>Yetakchi tashkilot</b>	<b>O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «10» 04 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16; faks: (+99866) 492-81-16; e-mail: [info@samaguni.uz](mailto:info@samaguni.uz); Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti bosh binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali)

Dissertatsiya bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «25» 03 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «20» 02 dagi 1 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.X.Rizayev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, q.x.f.d., dotsent.

**LX.Amanturdiyev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, q.x.f.d., dotsent.

**S.T.Sanayev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
q.x.f.d., professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda “dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlarida 40 mln. gektardan ortiq maydonda oq jo‘xori ekilib, o‘rtacha hosil 28,4 s/ga.ni tashkil etib, yalpi miqdorda 116,6 mln. tonna don yetishtirilmoqda. Olinadigan don hosilining 45-50 foizi Sudan (6 mln. gektar), Nigeriya (5,7 mln. gektar), Niger (3,7 mln. gektar), Hindiston (3,5 mln. gektar) va AQSh (2,5 mln. gektar) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi”<sup>1</sup>. Dunyo aholisi sonining ortib borishi glyutensiz mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortishiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi, chunki oq jo‘xori bunday mahsulotlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Oq jo‘xori muqobil, qurg‘oqchilikka, issiqlikka va tuproq sho‘rlanishiga chidamli ekin sifatida makkajo‘xori bilan raqobatlasha oladi, bu global iqlim o‘zgarishi sharoitida oq jo‘xori bozorining rivojlanishi uchun ham ancha qulayliklarni yaratadi. Shu boisdan iqlimi issiq hamda tuproqlari sho‘rlangan hududlarda yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi mamlakatlari oq jo‘xori yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish orqali yuqori va sifatli hosil olishda ijobiy natijalarga erishmoqda. Shuningdek, iqlimning global isishi, qurg‘oqchilik, yerlarning degradatsiyaga uchrashi, tuproq sho‘rlanishi hamda unumdorligining pasayishi va suv resurslarining kamayishi, sohada tuproq sho‘rlanishiga chidamli nav va duragaylarni yaratish, o‘g‘itlash hamda sug‘orishda resurstejovchi texnologiyalarni joriy etish, turli tuproq-iqlim sharoitlarida oq jo‘xori navlaridan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda maqbul ekish muddati, sxemasi va ekish me‘yorlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilgan.

Bugungi kunda respublikamizda tuproq meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini oshirish, aholini don va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, yuqori hosilli, turli abiotik va biotik omillarga chidamli hamda respublikamizning turli darajada sho‘rlangan tuproqlari sharoitiga mos oq jo‘xori navlarini paravarishlash agrotexnologiyasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli farmonida<sup>2</sup> “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobarga oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga oshirish, 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlarining hajmini 7,4 mln. tonnaga yetkazish” muhim strategik vazifa qilib belgilangan bo‘lib, ushbu vazifalar ijrosini ta‘minlash, jumladan, Jizzax viloyatining kuchsiz sho‘rlangan bo‘z-o‘tloqi tuproqlari sharoitida oq jo‘xoridan yuqori va sifatli hosil olishni ta‘minlaydigan parvarishlashning maqbul agrotexnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2019 yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2023-yil 5-apreldagi PQ-113 sonli “2023-yilda qishloq

<sup>1</sup> <https://www.fao.org/faostat/en/#data/QCL>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>3</sup> hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-martdagi 121-son "Mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish va 2021-yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish to'g'risida"<sup>4</sup> qarorlari ijrosini ta'minlash hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Oq jo'xorining yangi navlarini yaratish, lalmikor va sug'oriladigan yerlarda yetishtirish, ekish muddatlari va me'yorlari, sug'orish tartiblari va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish bo'yicha xorijda A.V.Alabushev, Y.A.Shishova, A.Y.Romanyukin, G.M.Ermolina, By Dr Joseph Eyre, Adam Sparks, Melina Miles, Prof Daniel Rodriguez, A.V.Ifeduba, U.E.Okata, I.Chiaka, respublikamizning sug'oriladigan yerlarida oq jo'xori seleksiyasi va yetishtirish agrotexnologiyalari bo'yicha S.K.Kadamov, I.V.Massino, A.V.Krajinskaya, K.T.Tursinboev, D.S.Kadraliev, A.Sh.Azizov, K.K.Azizov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

Ammo, respublikamizning tuproq-iqlim sharoiti noqulay bo'lgan Jizzax viloyatining kuchsiz sho'rlangan bo'z-o'tloqi tuproqlari sharoitida oq jo'xori navlaridan asosiy ekinda yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda maqbul ekish muddati va me'yorlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand veterinariya meditsinasi instituti (hozirgi SamDVMChBU) ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № 01980004512-raqamli "Yuqori hosilli va sifatli dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ilmiy jihatdan asoslangan, ekologik toza mahsulot yetishtirishni ta'minlovchi yangi agrotexnologiyalarni ishlab chiqish" mavzusining alohida bir bo'limi sifatida bajarilgan (2018-2020 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** Jizzax viloyatining kuchsiz sho'rlangan bo'z-o'tloqi tuproqlari sharoitida oq jo'xori navlaridan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda maqbul ekish muddati va me'yorlarini belgilash hamda ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Jizzax viloyatining kuchsiz sho'rlangan tuproqlari sharoitida oq jo'xori navlari urug'larining dala unuvchanligi va amal davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar miqdoriga ekish muddati va me'yorlarining ta'sirini aniqlash;

<sup>3</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6424449>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/-5323647?ONDATE=05.03.2021&action=compare>

oq jo‘xori navlarining rivojlanish davrlari davomiyligi, o‘simlik bo‘yi va ildiz tizimini shakllanishiga ekish muddati va me‘yorlarining ta‘sirini o‘rganish;

ekish muddati va me‘yorlarining oq jo‘xori navlari barg yuzasi, quruq modda to‘planishi va fotosintetik sof mahsuldorligiga ta‘sirini o‘rganish;

oq jo‘xori navlari hosil elementlari shakllanishiga (ro‘vak uzunligi va uning massasi, ro‘vakdagi don va 1000 dona don massasi) ekish muddati va me‘yorlarining ta‘sirini aniqlash;

kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar sharoitida ekish muddati va me‘yorlarining oq jo‘xori navlari don hosildorligi hamda sifat ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganish;

turli ekish muddati va me‘yorlarida parvarishlangan oq jo‘xori navlarining don va quruq biomassa hosildorligining iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamda ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Jizzax viloyatining kuchsiz sho‘rlangan bo‘z-o‘tloqi tuproqlari, davlat reestriga kiritilgan oq jo‘xorining O‘zbekiston 5 va O‘zbekiston 18 navlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Jizzax viloyati kuchsiz sho‘rlangan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarida oq jo‘xori navlarini turli ekish muddatlari, ekish me‘yorlari, o‘simliklarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlari, hosilning shakllanishi, don hosili va uning sifati, quruq biomassa hosildorligi, iqtisodiy samaradorligi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dala va laboratoriya tajribalari, fenologik kuzatuvlar, biometrik tahlillar “Dala tajribalarni o‘tkazish uslublari”, “Методика полевого опыта”, “Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур” uslubiy qo‘llanmalari asosida olib borilgan. Dala tajribalaridan olingan ma‘lumotlarga matematik-statistik ishlov berish Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexov uslubi asosida dispersion tahlil qilingan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Jizzax viloyatining kuchsiz sho‘rlangan bo‘z-o‘tloqi tuproqlari sharoitida oq jo‘xorining O‘zbekiston 5 va O‘zbekiston 18 navlari uchun maqbul ekish muddati 15-aprel hamda O‘zbekiston 5 navida 138,0 ming dona/ga (60x12 sm) va O‘zbekiston 18 navida 110,0 ming dona/ga (60x15 sm) me‘yorlari ishlab chiqilgan;

kuchsiz sho‘rlangan yerlarda maqbul ekish muddati (15.04) va me‘yorlarida (138,0 ming dona/ga, 110,0 ming dona/ga) oq jo‘xori navlarida amal davri oxirida saqlanib qolgan o‘simliklar miqdori 83,5-83,3 %, barg yuzasi 26,7-39,7 ming m<sup>2</sup>/ga, fotosintetik potensial 2,95-5,51 mln m<sup>2</sup>/ga, fotosintez sof mahsuldorlik 4,87-3,19 g/m<sup>2</sup>\*sutka yuqori bo‘lishi isbotlangan;

oq jo‘xoridan yuqori va sifatli don (59,7-75,6 s/ga) va quruq biomassa (107,4-128,5 s/ga) hosil olish uchun 15-aprel muddatida O‘zbekiston 5 navini 138,0 ming dona/ga, O‘zbekiston 18 navini 110,0 ming dona/ga me‘yorida ekish eng maqbul ekanligi ilmiy asoslangan.

oq jo‘xori O‘zbekiston 5 va O‘zbekiston 18 navlarini maqbul ekish muddati (15.04) va me‘yorlarida (138,0 ming dona/ga, 110,0 ming dona/ga) parvarishlash sof foydani 10641,2-17045,6 ming so‘m/ga, rentabellikni 73,2-117,2 % ga yuqori bo‘lishi isbotlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari.**

Jizzax viloyatining kuchsiz sho‘rlangan bo‘z-o‘tloqi tuproqlari sharoitida dehqon, fermer xo‘jaliklari va agroklastlar uchun oq jo‘xori navlaridan yuqori va sifatli don hamda quruq biomassa hosili olish maqsadida ularning maqbul ekish muddati va me‘yorlari aniqlab berilgan va ishlab chiqarishga joriy etish uchun parvarishlash agrotexnikasi ishlab chiqilgan;

kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar sharoitida oq jo‘xori navlari 15-aprel muddatida ekilganda 1-mayga nisbatan O‘zbekiston 5 navida unib chiqqan maysalar 0,8-1,6 ming dona/ga, O‘zbekiston 18 navida esa 1,0-3,1 ming dona/ga ko‘p bo‘lib, amal davri oxirida saqlanib qolgan o‘simliklar navlar bo‘yicha 1,2-2,1 va 1,5-2,9 ming dona/ga yuqori bo‘lgan;

oq jo‘xori navlarini 15-aprel muddatida parvarishlab, O‘zbekiston 5 navini 138 ming dona/ga, O‘zbekiston 18 navini 110 ming dona/ga me‘yorida yetishtirish navlar bo‘yicha qo‘shimcha don hosilini 3,3-5,5 va 6,6-7,5 s/ga, quruq biomassa hosilini 5,9-9,9 va 11,2-12,8 s/ga yuqori bo‘lishi bilan birga, sof foyda 8,2-10,6 va 13,2-17,0 mln.so‘m/ga, rentabellik darajasi 56,5-73,2 va 90,8-117,2 % ga oshgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi.** Dala hamda laboratoriya sharoitlarida tajriba va tahlillar o‘tkazishda uslubiy qo‘llanmalardan foydalangan holda olingan ma‘lumotlarga ishlov berilishi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan solishtirilganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalar asoslanganligi, ilmiy va amaliy natijalar mutaxassislar tomonidan aprotatsiyadan o‘tkazilib baholanganligi va tadqiqot natijalari amaliyotda keng qo‘llanilganligi va respublika hamda xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, dissertatsiya natijalari ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oq jo‘xorining Davlat reestriga kiritilgan navlari urug‘larining dala unuvchanligi, o‘simliklarning hosilni yig‘ishtirishgacha saqlanuvchanligi, o‘sishi, rivojlanishi, barg yuzasi, ekinzorning fotosintetik potentsiali, fotosintez sof mahsuldorligi, quruq modda to‘planishi, hosil strukturasi shakllanishi, don va quruq biomassa hosilining ortganligi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, oq jo‘xori navlarining maqbul ekish muddati va me‘yorlari aniqlanib, ishlab chiqarishga tavsiyalar berish asosida navlar bo‘yicha 48,1-54,2 va 59,2-64,3 s/ga yuqori don hosili olinib, iqtisodiy samaradorlik 58,8-66,2 va 91,5-99,2 % ga oshgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jizzax viloyatining kuchsiz sho‘rlangan bo‘z-o‘tloqi tuproqlari sharoitida oq jo‘xori navlarini ekish muddatlari va me‘yorlarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

dehqon va fermer xo‘jaliklari uchun “Jizzax viloyati sharoitida oq jo‘xorini ekish muddati va me‘yorlari bo‘yicha” tavsiyanoma ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 12-noyabrdagi № 05/06-04-594-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma dehqon va fermer xo‘jaliklarida oq jo‘xori yetishtirishda qo‘llanma sifatida foydalanilmoqda;

Jizzax viloyatining kuchsiz sho‘rlangan tuproqlari sharoitida oq jo‘xorining O‘zbekiston 5 navini 15-aprel muddatida 138 ming dona/ga hamda O‘zbekiston 18 navini 110 ming dona/ga me‘yorlarida parvarishlash agrotexnologiyasi 2022-2023-yillarda Jizzax viloyatining Paxtakor tumanida 37,5 gektar, Zafarobod tumanida 7,2 gektar, jami viloyat bo‘yicha 44,7 gektar maydonga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 12-noyabrdagi №05/06-04-594-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, oq jo‘xori navlari don hosildorligi 48,1-54,2; 59,2-64,3 s/gani tashkil etib, 1-may muddatida 184 ming dona/ga me‘yorida ekilganga nisbatan 2,2-3,1 va 5,2-6,1 s/ga qo‘shimcha don hosili olingan.

Jizzax viloyati kuchsiz sho‘rlangan bo‘z-o‘tloqi tuproqlari sharoitida oq jo‘xori navlarini asosiy ekin sifatida 15-aprel muddatida O‘zbekiston 5 navi 138 ming dona/ga, O‘zbekiston 18 navi 110 ming dona/ga me‘yorlarida ekib parvarishlash agrotexnologiyasi Paxtakor, Zafarobod tumanlarida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 12-noyabrdagi №05/06-04-594-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu agrotexnologiyani qo‘llash orqali navlar bo‘yicha gektaridan 8,56-9,63, 13,30-14,43 mln. so‘mgacha sof foyda olingan hamda 58,8-66,2, 91,5-99,2 foiz rentabellik darajasiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dala tajribalari har yili Samarqand veterinariya meditsinasi instituti (hozirgi SamDVMChBU) maxsus komissiyasi tomonidan aprobatsiyadan o‘tkazilgan va ijobiy baholangan, yillik hisobotlar universitetning ilmiy kengashlarida muhokama qilinib, dissertatsiya ishining asosiy natijalari bo‘yicha 1 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy anjumanlarida ma‘ruzalar qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib o‘tilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi va dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti batafsil keltirilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi keng yoritilgan, izlanishlarning amaliy natijalari va ularning ishonchligi ochib berilib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati batafsil bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish

bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, aprobatsiya va nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning hajmi va tarkibi keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Oq jo'xorini (*Sorghum vulgare L.*) o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga agrotexnik tadbirlarning ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi yuzasidan oq jo'xorining ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, morfologiyasi va biologik xususiyatlari hamda hosildorligi bo'yicha bugungi holat va rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Oq jo'xori navlarini yetishtirish va ko'paytirish bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlil qilinib, xorijiy, MDH mamlakatlari va O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilib tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazilgan hududning sharoitlari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba o'tkazilgan hududning iqlim sharoitlari, tuproq sharoitlari, tajriba o'tkazish uslublari, tajribada o'rganilgan obyektlarning tavsifi, tajribada qo'llanilgan agrotexnologik tadbirlar batafsil bayon etilgan.

Tajribalar o'tkazilgan yillarning ob-havo sharoiti tahlil qilinganda havo harorati tajriba o'tkazilgan 2018-yilda o'rtacha 15,2 °C ni, 2019-yil 16,3 °C, 2020-yilda esa 16,5 °C ekanligi kuzatilgan. Ekish muddati aprel oyida uch yillik ma'lumotida 16,2; 16,3; 16,9 °C ni tashkil etgan. Vegetatsiya davrining barcha oylarida haroratning yuqori bo'lganligi, urug'larni ekishni qulay muddatda o'tkazishga va o'simlikning o'sishi, rivojlanishiga ta'siri ijobiy bo'lganligi aniqlangan. Havoning nisbiy namligi oq jo'xorining vegetatsiya davrida uch yillik o'rtacha 44,5 % bo'lib, o'rtacha yillik ma'lumotlarga qaraganda 13,4 % ga pastligi hisobga olingan. Tadqiqotlar olib borilgan yillardagi yog'ingarchilik miqdori 2018-yilda 258,0 mm ni tashkil etib, o'rtacha yillik yog'ingarchilikka qaraganda 7,1 mm yuqori bo'lgan. 2019-yilda yog'ingarchilik miqdori 234,3 mm.ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilga nisbatan 26,1 mm kam bo'lganligi kuzatilgan. 2018-yil erta bahor o'rtacha yillikka nisbatan 36,6 mm past va 2019-2020 yillarda esa yog'ingarchilik 17,8-18,7 mm yuqori bo'lishi aniqlangan. Tajriba dalasi tuproqlari mexanik tarkibi bo'yicha o'rta qumoq, gumus miqdori haydov 0-30 sm qatlamda 1,04 %, pastki qatlamga tomon kamayib boradi. Haydov (0-30) va haydov osti (31-60) qatlamda yalpi azot mos ravishda 0,140 va 0,112 %, pastki qatlamda uning miqdori ham kamayadi. Yalpi fosfor miqdori 0,290-0,151 %, kaliy 2,01-1,70 % bo'lib, ularning eng yuqori miqdori haydov qatlamda kuzatiladi. Fosfor va kaliyning harakatchan shakli mos ravishda 14,0-8,5 va 320-280 mg/kg ni tashkil etadi. Kuchsiz sho'rangan bo'z-o'tloqi tuproqning 0-30 smda quruq qoldiq 0,361 % ni, umumiy ishqoriylik 0,032 %, 0,524 mg/ekv, xlorid ioni 0,072 %, 2,031 mg/ekv, sulfat ioni 0,150 %, 3,122 mg/ekv, 30-60 sm qatlamida esa quruq qoldiq birozgina ko'proq bo'lib 0,433 % ni, umumiy ishqoriylik ham yuqori ko'rsatkich bo'lib 0,048 %, 0,787 mg/ekv va xlorid ioni, sulfat ioni, kaltsiy kationi miqdori ko'paygan, kaliy va natriy kationlari miqdori esa aksincha kamaygan. Olib borilgan dala tajribalari Mirzacho'l tekisligida joylashgan bo'lib, bo'z-o'tloqi tuproqlari sizot suvlari 3-4 m da joylashgani qayd etilgan.

Dissertatsiyaning “**Oq jo‘xori navlarini yetishtirishda turli ekish muddati va me‘yorlarining o‘simlik o‘shishi, rivojlanishi, hosildorligi hamda don sifatiga ta‘siri**” deb nomlangan uchinchi bobida oq jo‘xori navlarining urug‘lari dala unuvchanligi, o‘simliklarning hosilni yig‘ishtirishgacha saqlanish darajasi, rivojlanish fazalari davomiyligi, poya va poyadagi ro‘vak soni, o‘simlik bo‘yi hamda fazalar oralig‘idagi o‘shish dinamikasi, ildiz tizimi rivojlanishi, fotosintetik faollik, navlarning don va quruq biomassa hosildorligi, don sifati ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Ekish muddatlarining kechikishi bilan urug‘larning dala unuvchanligini yuqori bo‘lib, ekish me‘yorlarining oshirilishi deyarli ta‘sir qilmagan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2018-2020-yillarda 15-aprel muddatida ekilgan variantlarda oq jo‘xori urug‘larining dala unuvchanligi eng yuqori bo‘lib, O‘zbekiston 5 navi 92,0 ming dona/ga me‘yorida ekilgan variantda 79,1 %, 110,0 ming dona/ga ekilganda 79,6%, 138,0 ming dona/ga.da 80,1 % va 184,0 ming dona/ga ekilgan nazorat variantida esa 80,4 % bo‘lganligi qayd etilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston 18 navida variantlarga mos ravishda 80,0; 80,6; 81,2 va 81,8 % bo‘lgan. Dala unuvchanligi 2018-yilda bahor oyida yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lmaganligi va urug‘larning unib chiqishi uchun qulay harorat bo‘lganligi sababli 2019-yilga nisbatan 4,1-8,3 %, 2020-yilga nisbatan 1,8-3,7 % yuqori bo‘lganligi aniqlangan.

Oq jo‘xorining O‘zbekiston 5 navi urug‘larning dala unuvchanligi bo‘yicha eng past ko‘rsatkichlar ekish muddati 1-aprelda ekilgan variantlarda kuzatilib, dala unuvchanligi 15-aprelda ekilgan variantlarga nisbatan tegishlicha 1,5 % (1,4 ming dona/ga); 1,7 % (1,9 ming dona/ga); 2,0 % (2,8 ming dona/ga) va 1,9 % (3,5 ming dona/ga) kam urug‘ unib chiqqanligi qayd etilgan. Oq jo‘xorining O‘zbekiston 18 navida ham yuqoridagi qonuniyat saqlanib qolgan.


Oq jo‘xorining O‘zbekiston 5 navini 1-aprel muddatida ekilganda amal davri oxirida saqlanib qolgan o‘simliklar 81,5 % dan 84,2 % gacha, ekish muddati 15-aprelda o‘tkazilganda 82,2 % dan 85,9 % gacha va ekish muddati 1-mayda esa, amal davri oxirida saqlanib qolgan o‘simliklar 81,7 % dan 85,1 % gacha bo‘lganligi qayd etilgan. Bunda eng yuqori ko‘rsatkichlar o‘rta muddatda 15-aprelda ekilganda kuzatilgan. Ekish 1-aprel muddatida ekilganda amal davri oxirida saqlanib qolgan o‘simliklar sezilarli kamayishi aniqlangan. O‘zbekiston 5 navida amal davri oxirida eng kam saqlanib qolgan o‘simliklar birinchi muddatda (1.04) 184,0 ming dona/ga urug‘ ekilgan nazorat variantda 81,5 % (117,6 ming dona/ga), ikkinchi muddatda (15.04) 184,0 ming dona/ga nazorat variantida 82,2 % (121,6 ming dona) hamda uchinchi (1.05) muddatda, 184,0 ming dona/ga ekilgan nazorat variantda esa 81,7 % (119,5 ming dona/ga) ekanligi aniqlangan.

O‘zbekiston 18 navida amal davri oxirida eng ko‘p miqdorda saqlanib qolgan o‘simliklar 15-aprelda, 92,0 ming dona/ga me‘yorida ekilganda 84,8 %, 110,0 ming dona/ga ekilganda 83,3 %, 138,0 ming dona/ga.da 82,2 % va 184,0 ming dona/ga ekilgan nazorat variantda 80,7 % bo‘lganligi aniqlangan. O‘simliklarning amal davri oxirida eng kam miqdorda saqlanib qolishi 1-aprelda 92,0 ming dona/ga me‘yorida ekilgan variantda 83,0 %, 110,0 ming dona/ga ekilgan variantda 81,8 %, 138,0 ming dona/ga.da 81,1 % va 184,0 ming dona/ga ekilgan nazorat variantida esa 79,9 %

bo‘lganligi kuzatilgan. 1-aprelda ekilgan variantlarga nisbatan 15-aprelda ekilgan variantlarda o‘simliklarning amal davri oxirida o‘simliklarning saqlanuvchanligi variantlarga mos ravishda 2,5; 3,0; 3,5 va 4,5 ming.tup/ga, 1-may ekish muddatiga nisbatan 1,5; 1,7; 1,8 va 2,9 ming.dona/ga yuqori bo‘lganligi qayd etilgan. Amal davri oxirida saqlanib qolgan o‘simliklar miqdori yillar bo‘yicha deyarli farqlar kuzatilmagan. lekin, 2019-yilda 1,2 % gacha yuqori natija ko‘rsatgani qayd etilgan.

Tadqiqotning uch yillik ma‘lumotlariga ko‘ra, oq jo‘xorining O‘zbekiston 5 va O‘zbekiston 18 navlarining vegetatsiya davri davomiyligida deyarli sezilarli farq kuzatilmagan. Oq jo‘xorining O‘zbekiston 5 navi o‘suv davri davomiyligi birinchi ekish (1.04) muddatida 112 kundan 118 kungacha, ikkinchi ekish (15.04) muddatida 108 kundan 114 kungacha va uchinchi ekish muddatida 105 kundan 112 kungacha, O‘zbekiston 18 navida ekish muddatiga mos holda 137-145 kun; 133-141 kun; 128-137 kungacha o‘zgargan. Ekish muddatlarini 1-apreldan 1-maygacha kechikishi o‘suv davrini qisqarib borishiga, O‘zbekiston 5 navida 3-5 kunni, O‘zbekiston 18 navida 4-5 kunni tashkil etgan. Ekish me‘yorlarini yuqori bo‘lishi o‘suv davri davomiyligini 6-8 kunga qisqa bo‘lishini, yillar bo‘yicha 2019-yilda 2018 va 2020 yillarga nisbatan vegetatsiya davri 2-5 kun, dastlabki fazalarida (unib chiqish) 2-3 kun uzoq davom etishi aniqlangan.

Ekish muddati va me‘yorlarining o‘simlik bo‘yining balandligi va barglar soniga ta‘siri bo‘yicha olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, oq jo‘xori navlari 1-aprel muddatida 92,0 ming.dona/ga me‘yorida ekilganda 189,5 sm, 110,0 ming.dona/ga 191,8 sm, 138,0 ming.dona/ga 195,5 sm, 184,0 ming.dona/ga 200,6 sm, 15-aprel muddatida ekilganda ekish me‘yorlariga mos ravishda 191,9; 194,3; 198,2; 203,5 sm, uchinchi ekish (1.04) muddatida esa 190,3-201,6 sm bo‘lganligi kuzatilgan. Shuningdek, O‘zbekiston 18 navida o‘simlik bo‘yining balandiligi ekish muddati va me‘yoriga mos holda 336,6-350,8; 341,0-353,7; 339,4-351,8 sm.gacha bo‘lishi qayd etilgan. Har ikkala navda ham ekish me‘yorining yuqori bo‘lishi o‘simlik bo‘yining 11,1-14,2 sm gacha baland bo‘lishiga olib kelgan (1-rasm).



**1-rasm. Oq jo‘xori navlarining pishish fazasidagi bo‘yining balandligi, sm (2018-2020 yy.).**

Tajribada ekish muddatlari va me'yorlari o'simlik barglar sonining shakllanishiga sezilarli ta'sir etmaganligi qayd etilib, oq jo'xorining O'zbekiston 5 navi birinchi (1.04) muddatda ekilganda 18,4-18,8 dona, ikkinchi (15.04) ekish muddatida 18,4-19,0 dona, uchinchi ekish muddatida 18,0-18,6 dona barglar hosil qilgan. O'zbekiston 18 navida ham ushbu qonuniyat saqlanib, ekish muddatlariga mos holda 26,2-27,0; 24,8-26,0; 23,4-24,4 donani tashkil qilgan.

Tadqiqotlarda oq jo'xorini barg yuzasi, fotosintetik potentsiali hamda fotosintez sof mahsuldorligiga ekish muddati va me'yorlarining ta'siri o'rganilgan. Bunda bir gektar maydondagi barg yuzasi aniqlanganda, O'zbekiston 5 navida birinchi ekish muddatida 26553,1-29389,3 m<sup>2</sup>/ga, O'zbekiston 18 navida 53673,5-56707,7 m<sup>2</sup>/ga, ikkinchi ekish muddatida navlarga mos holda 25394,7-27607,4 m<sup>2</sup>/ga, 39278,0-41131,9 m<sup>2</sup>/ga, uchinchi ekish muddatida esa bu ko'rsatkichlar ekish me'yorlari va navlarga mos holda 24493,1-26784,4 m<sup>2</sup>/ga, 38181,1-39774,7 m<sup>2</sup>/ga.ni tashkil etgan. Fotosintetik potentsiali O'zbekiston 5 navida eng yuqori ko'rsatkich 1-aprelda 3,13-3,33 mln. m<sup>2</sup>/ga, ikkinchi ekish muddatida (15.04) 2,89-2,99 mln. m<sup>2</sup>/ga, eng past ko'rsatkichlar uchinchi ekish muddatida (01.05) 2,75-2,84 mln. m<sup>2</sup>/ga ni tashkil etgan. O'zbekiston 18 navida ham yuqoridagi qonuniyatlar saqlanib, birinchi ekish muddatida 7,74-7,80 mln. m<sup>2</sup>/ga, ikkinchi ekish muddatida 5,46-5,53 mln. m<sup>2</sup>/ga va uchinchi ekish muddatida 5,01-5,23 mln. m<sup>2</sup>/ga bo'lganligi aniqlangan.


Olib borilgan tadqiqotlarda oq jo'xori navlarida quruq modda to'plashi pishish fazasida eng yuqori bo'lib, O'zbekiston 5 navi 1-aprelda 138,0 ming dona/ga urug' sarflangan variantda eng yuqori 12,8 t/ga olingan. O'zbekiston 18 navida esa 110,0 ming dona/ga me'yorida ekilganda eng yuqori 15,7 t/ga.ni tashkil etgan. Ekish me'yorini oshib borishi quruq modda to'plash miqdorini nisbatan biroz kamayish tendensiyasi qayd etilgan. Oq jo'xori navlarini ikkinchi ekish (15.04) muddatida boshqa muddatlarga nisbatan quruq modda miqdori yuqori bo'lishi qayd etilgan. Bunda O'zbekiston 5 navida 92,0 ming dona/ga ekilgan variantda 13,0 t/ga, 110,0 ming dona/ga 13,6 t/ga, 138,0 ming dona/ga 14,4 t/ga, 184,0 ming dona/ga urug' sarflangan variantda 13,9 t/ga, O'zbekiston 18 navida ekish me'yorlariga mos holda 15,4; 17,6; 16,8 va 15,8 t/ga, uchinchi ekish muddatida esa, O'zbekiston 5 navida mos holda 12,0; 12,7; 13,0; 12,7 t/ga, O'zbekiston 18 navida 13,9; 15,1; 15,2 va 14,2 t/ga quruq modda to'plashi aniqlangan.

Fotosintez sof mahsuldorligi o'simlikni quruq massasi, barg yuzasi, ekinzorning fotosintetik potentsiali va rivojlanish davri davomiyligiga bog'liq bo'lib, tajribada oq jo'xori o'simligida ekish muddatlari va me'yorlarining fotosintez sof mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ta'siri tahlil etilganda, birinchi ekish muddati bo'yicha O'zbekiston 5 navida eng yuqori ko'rsatkich 138,0 ming dona/ga ekilganda 3,85 g/m<sup>2</sup>\*sutka, xuddi shunday qonuniyat ikkinchi va uchinchi ekish muddatlarida qayd etilib, tegishli: 4,87; 4,71 g/m<sup>2</sup>\*sutka, O'zbekiston 18 navida esa, birinchi va ikkinchi ekish muddatlarida ekish me'yorlari 110,0 ming dona/ga ekilganda 2,03; 3,19 g/m<sup>2</sup>\*sutka, uchinchi ekish muddatida esa eng yuqori ko'rsatkich 138,0 ming dona/ga ekilganda 3,04 g/m<sup>2</sup>\*sutkanini tashkil etgan. Ekish muddati aprel oyining ikkinchi (15.04) o'n kunligida ekish boshqa muddatlariga nisbatan navlarga mos holda 0,16-1,02 g/m<sup>2</sup>\*sutka; 0,12-1,16 g/m<sup>2</sup>\*sutkagacha yuqori bo'lishi aniqlangan.

Tajribada oq jo'xori navlarini turli ekish muddatlari va me'yorlarida parvarishlash oqjo'xorini hosil strukturasi sezilarli ta'sir ko'rsatib, ro'vak

uzunligining shakllanishi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar birinchi ekish muddatida (01.04) 92,0 ming dona/ga me'yorida ekilganda, O'zbekiston 5 navida 25,3 sm, O'zbekiston 18 navida esa 25,4 sm.ni, ekish me'yoring ortib borishi bilan navlarga mos holda ekish muddatlari bo'yicha 23,1; 25,1; 24,2 sm, 22,1; 24,1; 23,2 sm ga pasaygan. O'simlikda ro'vak enining shakllanishi bo'yicha navlarga mos holda 9,2; 11,6 sm, bunda ham ekish me'yori ortib borishi bilan 6,2; 8,6 sm past bo'lishi qayd etgan. Bir tup o'simlikdagi ro'vak massasi bo'yicha O'zbekiston 5 navi 137,6 g, O'zbekiston 18 navi esa 149,9 g bo'lishi aniqlangan. Xuddi shunday boshqa muddatlarda ham ekish me'yori ortib borishi bilan yuqoridagi ko'rsatkichlarga mos holda kamayishi aniqlangan. Bir tup o'simlikdagi don massasi ekish me'yori ortib borishi bilan birinchi ekish muddatida O'zbekiston 5 navida 81,0 g dan 43,6 g gacha, O'zbekiston 18 navida esa 106,4 g dan 55,0 g gacha, ikkinchi ekish muddatida navlarga mos holda 86,2-46,4 g; 106,5-56,0 g, uchinchi ekish muddatida 81,3-43,8 g; 106,3-55,0 g gacha pasayib borishi kuzatilgan. Oq jo'xori navlarini barcha ekish muddatlarida ekish me'yoring 92,0 ming.donadan 184,0 ming.donaga oshirib borilishi bir tup o'simlikdagi ro'vak va po'stloq chiqimining yuqori bo'lishiga, bu birinchi ekish muddatida (01.04) O'zbekiston 5 navida 56,6-82,0 g.ga, O'zbekiston 18 navida 43,5-80,9 g.ga, ikkinchi muddatida (15.04) navlarga mos holda 74,2-100,4 g; 66,3-101,7 g, uchinchi ekish muddatida (01.05) mos holda 59,0-84,1 g; 47,3-82,3 g ga bo'lganligi hisobga olingan.

Oq jo'xoring 1000 ta don massasiga ekish muddati va me'yorlarining ta'siri o'rganilganda, birinchi ekish muddatida O'zbekiston 5 va O'zbekiston 18 navlarida 92 ming dona/ga me'yorda ekilgan variantlarda 23,3; 29,5 g, 110,0 ming dona/ga ekilganda 22,5; 28,7 g, 138,0 ming dona/ga ekilgan variantlarda 22,0; 28,2 g hamda 184,0 ming dona/ga ekilgan variantlarda 20,8; 27,0 g ni tashkil etgan. Ikkinchi ekish muddatida (15.04) esa navlarga mos holda 23,8; 30,0 g, 23,0; 29,2 g, 22,5; 28,7 g, 21,3; 27,5 g ni, uchinchi ekish muddatida (1.05) 21,0-23,5 g; 27,2-29,7 g bo'lishi va ekish me'yori ortib borishi (92,0 ming.donadan 184,0 ming.donaga) bilan 1000 ta don massasi pasayib borishi aniqlangan (2-rasm).



**2-rasm. Oq jo'xori navlarining 1000 dona urug' vazniga ekish muddatlari va me'yorlarining ta'siri (2018-2020 yy.).**

## 1-jadval

## Oq jo'xori navlarining don hosiliga ekish muddatlari va me'yorlarining ta'siri, s/ga

T/r	Ekish muddatlari	Ekish me'yori, ming dona/ga	Don hosili, s/ga			O'rta-cha	Qo'shimcha hosildorlik			
			2018 y.	2019 y.	2020 y.		01.V (n-t) ekish muddatiga nisbatan		184 ming. dona/ga ekish me'yoriga nisbatan	
							s/ga	%	s/ga	%
<b>O'zbekiston 5 navi</b>										
1.	01.IV	92,0	48,3	49,7	48,1	48,7	-1,1	-2,2	-2,6	-5,1
2.		110,0	51,9	50,0	50,4	50,8	-1,8	-3,4	-0,5	-1,0
3.		138,0	52,6	54,5	52,9	53,3	-0,9	-1,7	2,0	3,9
4.		184,0 (n-t)	49,9	53,1	50,9	51,3	-1,1	-2,1	0,0	0,0
5.	15.IV	92,0	52,4	55,2	54,1	53,9	4,1	8,2	-2,5	-4,4
6.		110,0	56,6	58,1	54,7	56,5	3,9	7,4	0,1	0,2
7.		138,0	58,5	61,9	58,8	59,7	5,5	10,2	3,3	5,9
8.		184,0 (n-t)	54,4	58,6	56,1	56,4	4,0	7,6	0,0	0,0
9.	01.V (n-t)	92,0	47,5	51,2	50,7	49,8	0,0	0,0	-2,6	-5,0
10.		110,0	54,9	52,6	50,3	52,6	0,0	0,0	0,2	0,4
11.		138,0	53,1	54,6	54,9	54,2	0,0	0,0	1,8	3,4
12.		184,0 (n-t)	54,2	51,2	51,7	52,4	0,0	0,0	0,0	0,0
Umumiy EKIF <sub>05</sub> s/ga		4,05	4,64	4,25						
A omil EKIF <sub>05</sub> s/ga		2,03	2,32	2,13						
B omil EKIF <sub>05</sub> s/ga		2,34	2,68	2,46						
Sx%=		2,72	3,01	2,85						
<b>O'zbekiston 18 navi</b>										
13.	01.IV	92,0	61,4	65,1	64,6	63,7	-1,1	-1,7	-0,6	-0,9
14.		110,0	69,8	67,5	65,2	67,5	-1,5	-2,2	3,2	5,0
15.		138,0	64,3	65,8	66,1	65,4	-3,7	-5,4	1,1	1,7
16.		184,0 (n-t)	66,1	63,1	63,6	64,3	-0,9	-1,4	0,0	0,0
17.	15.IV	92,0	66,0	67,4	65,8	66,4	1,6	2,5	-1,7	-2,5
18.		110,0	76,7	74,8	75,2	75,6	6,6	9,6	7,5	11,0
19.		138,0	71,6	73,5	71,9	72,3	3,2	4,6	4,2	6,2
20.		184,0 (n-t)	66,7	69,9	67,7	68,1	2,9	4,4	0,0	0,0
21.	01.V (n-t)	92,0	63,3	66,1	65,0	64,8	0,0	0,0	-0,4	-0,6
22.		110,0	69,1	70,6	67,2	69,0	0,0	0,0	3,8	5,8
